

Axborot-resurs markazida “Kitobxonlik haftaligi”

Joriy yilning 9-aprel kuni Xotin-qizlar masalalari bo'yicha kengashi raisi Z. K. Ismailova boshchiligidagi kengash a'zolari "Kitobxonlik haftaligi" doirasida Axborot-resurs markazi tomonidan «Kitob - inson ma'nnaviyati ko'zgusidir» rukni ostida tashkil etilgan «Kitoblar ko'rgazmasiga» tashrif buyurdilar. Kengash a'zolari ko'rgazmada namoyish etilgan o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, shu jumladan o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari bilan yaqindan tanishib chiqdilar.



Tashrif davomida Xotin-qizlar masalalari bo'yicha kengash a'zolari institut tomonidan tashkil etilgan O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni va jamoat arbobi Abdulla Oripov muzeyini tomosha qildilar. Shoир Abdulla Oripov hayoti va ijodini yoritib beruvchi eksponatlar va suratlar ularda juda katta taassurot goldirdi.

TIQXMMI matbuot xizmati